

INGLIZ TILIDAGI SEZGI FE'LLARINING INTERAKTIV-INNOVATSION IFODASI

Eshnazarov Sardor G'affor o'g'li

Turon universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish

yo'nalishi talabasi

+99877-338-36-43

Annotatsiya: Mazkur maqolada interaktiv-innovatsion usullar orqali tashkil etiladigan o'yinlar hamda ular yordamida o'quvchilarning istalgan shakldagi guruhlar bilan ishlash, mustaqil ishlash, izlanish, hushyorlik va tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o'rganilayotgan dars samaradorligi bilan dars sifatini oshirib berishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *interaktiv, innovatsion, sezgi fe'llari, oddiy amaliyot, klaster, solishtirish, lug'at bilan ishlash.*

Abstract: The article provides information about games organized through interactive-innovative methods and how they help students to work in groups in any shape, develop their independent work, research, vigilance and speed skills, improve the quality of the lesson with the efficiency of the lesson being studied.

Key words: *interactive, innovational, perceptual verbs, simple practice, cluster, matching, working with vocabulary.*

Hozirgi kunda zamonaviy ta'limda metodlar, usullar, texnika vositalari, xalqaro standartlar, internet kabi yangiliklardan foydalangan holda o'qitish samarali hisoblanadi. O'quvchi ta'lim jarayonida faol ishtirokchi, o'qituvchi esa yaxshi tashkilotchi bo'lsa, yangi o'qitiladigan mavzu ancha samarali va qiziqarli bo'ladi, ular egallagan bilimlar esa xotiradan mustahkam joy oladi [1].

Ma'lumki, fe'l barcha tillarda asosiy so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Chunki, u gapda ham birinchi darajali, ham ikkinchi darajali bo'lak bo'lib keladi. Xuddi shunday, sezgi fe'llari ham barcha tillarda mavjud bo'lib, ularni boshlang'ich sinflarda o'qitish ancha qiziqarli bo'ladi. Ko'plab olimlarning fe'llarni o'qitish to'g'risidagi fikrlariga qaraydigan bo'lsak, ular nazariyadan ko'ra, amaliyotga ko'proq e'tibor qaratadilar.

Sezgi bu – olamdagi narsa va hodisalar ayrim xossalarning miyadagi in'ikosi. Sezgi dunyoni bilishning birinchi bosqichi va tarkibiy qismidir. Shuning uchun, u asosida hissiy bilishning idrok va tasavvur kabi shakllari yuzaga keladi. Tashqi qo'zg'atuvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, barcha sezgilar badan sezgisi *feel-tuyish, see-ko'rish, hear-eshitish, smell-hid bilish, taste-ta'm bilish* kabi sezgilarga

bo'linadi. Ular ilmiy tilda ekstretseptorlar deyiladi Sezgilar odatda fizik, fiziologik va psixologik jarayonlarda namoyon bo'ladi [5].


Sezgi fe'llarini o'rganishdan maqsad fe'l ustida izchillik bo'limlar orasidagi bog'lanish usullari va vositalari, shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o'quvchilarning bilim olishdagi imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Sezgi fe'llari mavzusini o'rganishdan asosiy vazifalar fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini sezgi fe'llari leksikoni bilan boyitish, og'zaki va yozma nutqda ulardan foydalanish ko'nikmasini o'stirish, ularning aqliy va tezkor hozirjavobligini o'stirish va hokazo. Sezgi fe'llarini boshlang'ich sinflarda quyidagi aspektlarda o'rgatishimiz mumkin:

- 1) **Uyg'otib olish (Warming up) mashg'uloti.** Bunda kishilik olmoshlari bilan yoki atoqli otlar bilan birgalikda sezgi fe'llarini sodda gaplarda ishlatib ko'ramiz. Masalan:
 - *I see,*
 - *You hear,*
 - *We watch,*
 - *Jack smells,*
 - *It tastes* [4].
- 2) **Lug'at bilan tanishtirish (Introducing vocabulary).** Bunda o'qituvchi sezgi fe'llariga qaysi fe'llar kiradi? deya savol berishi mumkin. Jismoniy jihatdan kishi tomonidan qabul qilinuvchi his qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha fe'llar *see, look, hear, watch, listen, smell, taste, feel, touch, notice, excite, tickle, giggle, fear, notice* [3] ning barchasi sezgi fe'llariga misol bo'ladi.
- 3) **Sezgi fe'llarni tushuntirish (Explaining perceptual verbs).** Bunda sezgi fe'llarini ot bilan yoki ravish bilan qo'llanishini tushuntirsa bo'ladi. Chunonchi, a) *watch TV, listen to radio, hear music, see a butterfly, feel hand;* b) *look happy, feel sad, smell good, taste delicious* va h.k. Bunda mashg'ulotlarning ta'sirchanligini oshirish va o'quvchilarni qiziqtirish uchun rasmiy illustratsiyalardan ham foydalanish mumkin.
- 4) **Amaliyotda oddiy holda qo'llash (Simple practice).** Fill in gaps. Bu turli xil matnlardan olingan kontekstlardagi katakchalar o'rniga kerakli fe'lni qo'yish degan mashg'ulot o'tkazish degani. Bunda o'qituvchi kichik (handout) varaqlarni o'quvchilarga tarqatib 2-5 daqiqagacha vaqt beradi.


1.	I		music	in my	free time
2.	You		cake	in	a cafe
3.	He		Ann	at	classes
4.	we		TV	every	evening

Buning javobi: 1) listen to 2) taste 3) see 4) watch

- 5) Bundan tashqari, darsda klaster metodini ham qo'llashi mumkin. O'qituvchi doskaga ko'z yoki quloqni rasmini 3 ta qilib (har uchala guruh ishtirokchilari uchun) chizadi bolalar esa u orqali qilinadigan harakatning nomini aytadilar. Bunda o'quvchilar bir fe'lning bir qator sinonimlarni ham qo'llashlari mumkin bo'ladi. Qaysi jamoa ishtirokchilari ko'p so'z yozsa, o'sha jamoa g'olib bo'ladi. Misol uchun:



Mazkur mashq uchun yana boshqa bir misol



- 6) Shuningdek (**matching**) ya'ni **solishtirish** ham qiziqarli metod hisoblanadi.

- | | | |
|----------|---|---------------|
| 1) smell | } | a) television |
| 2) feel | | b) sound |
| 3) watch | | c) rose |
| 4) hear | | d) blue |

Bu mashqning javoblari quyidagilar: 1) c 2) d 3) a 4) b.

7) Ma'lumot sifatida shuni ta'kidlash joizki, (True/false) to'g'risini topish: tick yoki cross qo'yish orqali bajariladigan eng samarali mashq mavjud. Agar gap to'g'ri bo'lsa V belgisi, noto'g'ri bo'lsa X qo'yiladi. Bu mashqni oq doskada maxsus belgili magnitichalar yordamida bajarish mumkin.

- 1) I hear radio. X - I listen to the radio. V
- 2) I see Ann. V - I look Ann. X
- 3) You smell rose. V - You hear rose. X
- 4) We touch bread. X - We taste bread. V

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi usullar orqali tashkil etilgan o'yinlar o'quvchilarning istalgan shakldagi guruhlar bilan ishlash, mustaqil ishlash, izlanish, hushyorlik va tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o'rganilayotgan dars samaradorligini va sifatini oshirib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.Tog'ayeva. Ona tili darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish. Umumta'lim fanlari metodikasi, 2017yil, 13-bet
2. G.Azimova. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos usullari. Umumta'lim fanlari metodikasi, 2017yil, 4-bet
3. Merriam Webster Advanced learners dictionary, Incorporated Springfield, Massachusetts, U.S.A 2014, p 2032.
4. www.BusyTeacher.org
5. www.uzwikipedia.org